



Axmedova Ulxanoy shukurjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazaryasi va amalyoti ingliz tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu tezis ilmiy tarjimadagi muammolar va ilmiy matnlarni tarjima qilish jarayonidagi lingvistik va uslubiy muammolarni ochib beradi. Tezisda tarjimonning malakasi va texnologik vositalardan foydalanishi ilmiy tarjima sifatiga yaxshi ta'sirini ko'rsatadi. Tezisda ilmiy tarjimaga xos muammo-kamchiliklarni o'rganish va ularga yechim etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Taklif etilgan yechimlar amaliy tarjima ya'ni amalyotni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari ilmiy matnlarda ixchamlilig va terminlar ishlatilishi tarjima jarayonini yaxshi samara berishi ko'rsatib o'tiladi. Natijada ish ilmiy tarjimaning murakkab jihatlarini ochib berib, tarjimonlarga amaliy va nazariy faolyatini samarali rivojlantirishga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ilmiy tarjima, tarjimon, uslubiy, tarjima strategiyalari, ilmiy matn, amaliy yechim, tarjimon malakasi.

KIRISH

Ilmiy tarjima undagi muammolar va uning yechimi tarjima nazaryasi va amalyotining eng murakkab yo'nalishlaridan biridir. Tarjima nazaryasi va tarjimada o'rganuvchi matnning uslubi, ma'nosi uning fonetik xususiyatiga e'tibor qaratadi. Ilmiy tarjimada matnning asl manosi saqlanadi. Ayniqsa ilmiy matnlarni tarjima qilishda nafaqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazish balki



terminologik va uslubiy jihatlarini hisobga olish muhim. Ilmiy tarjimadagi muammolar ko'p hollarda terminlarda aniq emasligi jumlaning murakkabligi shuningdek matnning madaniy xususiyatlariga bog'liq. O'ylashimcha ilmiy tarjimaning muammolari jihatlarini o'rganish nafaqat tarjimonlar uchun zarur, balki kommunikatsiyani ham oshiradi. Tarjima jarayonida tarjimon matnning o'ziga xos tarzda tarjima qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda tarjimon o'z qarashlarini ochib beradi va matnning ma'nosi uslubiy bo'yicha ishlab tahlil qiladi. Hozirgi zamonaviy matnlarda tarjima jarayonida uchraydigan muammolar bor bulardan biri terminga xos ya'ni terminologik ekvivalent topishdir. Har bir soha ajralib turadi uslubiy talablari bilan. Terminologik aniq kontekst to'g'ri yondashuv natijasida biz ilmiy matnlarni to'g'ri va sifatli tarjima qilishni asosiy qadriyat topamiz. Tarjimon ilmiy kuchli nafaqat ikki til bilimlariga ega bo'lishi va shu sohada malakaga ega bo'lishi lozim. Ilmiy tarjima eng muhim tarjima turlaridan sifatida talqin qilinadi. Ilmiy tarjimon o'sha mavzu bo'yicha mukammal tayyorgarlikka ega bo'lish kerak, chunki ilmiy uslubdagi tarjima matnning noto'g'ri tarjima qilinsa ilmiy-fanda tanqidiy muhokamalarga duch kelish mumkin. Ona yurtimizda ilmiy va o'z ishini mukammal egallaydigan ilmiy tarjimonlar yetishtirish bizning muhim vazifalardanidir. Ilmiy tarjimada murakkabliklari boshqa tilga tarjimasida ko'plab qiyinchiliklar qamraydi. Ilmiy tarjima turida ilmiy sohada kitoblar maqolalar dissertatsiyalar monografiyalar shunga kiradigan materyallarni boshqa tillarga tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Ilmiy tarjima asosan nimasi muhim shu sohadagi hujjatlar o'rganishda boshqa millat olimlari tomonidan yozilgan kitoblar asarlarni butun dunyo bazasiga kiritish uchun muhim omil hisoblanadi. Chet -el jurnallarida chop etish juda muhim. Bunday murakkabliklarni tushunish aniqlash uchun tarjimon ilmiy uslubiy matnlarni chuqur tahlil qilish kerak. Tarjimonda ba'za va uslubiy ko'nikmasi bo'lishi kerak zero xatoga yo'l qo'yimaslik uchun aniqlik muhim har bir jarayon ahamiyatga ega tarjimon bu uslubdagi matnning bilganicha tarjima qilolmaydi



o'zidan har-xil bo'yoqlar qo'sholmaydi, ma'nosini o'zgartolmaydi ilmiy uslubdan chiqolmaydi. Matndagi so'zlar va gaplar o'rtasidagi aloqalar ma'no matnning asl ma'nosini tushunish uchun muhim. Uslub matndagi avvalgi tilga uni uslubga mos kelish shart. Shuni aytaolamanki amaliy mashq va matnlar tahlili tarjimasi, tarjimonni malakasini oshradi va ilmiy uslub tarjima sifatini yaxshilaydi. Tarjima 4 turli bo'ladi badiiy ilmiy publisistik rasmiy. Ilmiy uslub aytganimdek murakkab bo'ladi, xattoki ona-tilimizda yozilgani ham bizga biroz o'z qiyinchiliklarini tug'diradi. Ilmiy tarjimon shu sababli o'z tilini va boshqa tarjima qilinayotgan tilni ham chuqur egallagan bo'lishi lozim. Tarjimada so'zlar soni ham saqlanib qolishi kerak agar tushurib ketilsa qisqartirilsa ko'plab noto'g'ri vaziyatlarga duch kelinadi. Butun boshli tarjima xatolikka uchraydi.

XULOSA

Ilmiy tarjimaning buyuk sifati so'zlarni tarjima qilish emas ilmiy mazmuni ushlab qolish o'qiyotgan insonga yetkazish to'liq tushunarli ifoda qilish. Tarjimon doim o'z ustida ishlashi muhim chunki to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar yetkazish uchun. Tarjima jarayonida ilmiy uslub ko'p uchraydi. Eng yaxshi tarjima uchun ko'p vaqt ketishi ham munkun. Bu uslubda akademik standartlarga roiya qilinadi va ilmiy ish jarayonlar olib boriladi. Tarjimon ma'sulyati ko'p u bir misoli bir uzun yo'l ilmiy bilimlarni yetkazuvchi shuning uchun ular yuksak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E. Umumiy tilshunoslik asoslari. Toshkent ; 2010
2. Ochilov E. Tarjima nazaryasi va amalyoti. qo'llanma.
3. Rixsiyeva G SH. Tarjima nazaryasi va amalyoti [qo'llanma] Toshkent
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi. Tarjima Nazariyasi bo'yicha uslubiy qo'llanma, 2020.





5. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
6. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011.

